

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVETSITETI

JUMANAZAROV G'AYRAT XUSANOVICH

**DORIVOR O'SIMLIKLARDAN NA'MATAK, XO'JAG'AT VA
QORAG'ATLARNING ZAMBURUG' QO'ZG'ATADIGAN
KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI**

06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Jumanazarov G‘ayrat Xusanovich

Dorivor o‘simliklardan na‘matak, xo‘jag‘at va qorag‘atlarning
zamburug‘ qo‘zg‘atadigan kasalliklari va ularga qarshi kurash
choralari 3

Жуманазаров Гайрат Хусанович

Грибковые болезни лекарственных растений: шиповника, малины и
смородины и меры борьбы с ними 21

Jumanazarov Gayrat Khusanovich

Fungal diseases of medicinal plants: dog rose, raspberry and currants and
control measures against them 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVETSITETI

JUMANAZAROV G'AYRAT XUSANOVICH

**DORIVOR O'SIMLIKLARDAN NA'MATAK, XO'JAG'AT VA
QORAG'ATLARNING ZAMBURUG' QO'ZG'ATADIGAN
KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI**

06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Qx428 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Zuparov Mirakbar Abzalovich
biologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Nosirov Baxtiyor Saloxiddinovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Xo'jayev Otabek Temirovchi
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «14» 03, soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 1001040, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy Tel: (+99871) 260-48-00; Faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~513996~~-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy, tel: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «04» 03 da tarqatildi.
(2023 yil «04» 03 dagi 7 raqamli restr bayonnomasi.)



D.A.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., dotsent

N.I.Shadiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, b.f.d., katta ilmiy xodim

M.E.Saidova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo davlatlarida 12 ming turdagi dorivor o‘simliklarning mingdan ortig‘i farmasevtika sanoatida ishlatiladi. Butunjahon Sog‘liqni Saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, mavjud dori-darmonlarning 60% ini dorivor o‘simliklar xom ashyolaridan olingan preparatlar tashkil etadi. Shu sababli dorivor xususiyatga ega bo‘lgan xo‘jag‘at va qorag‘at o‘simliklari jahonda 251,2 ming gektar maydonda yetishtiriladi. “Dunyo bo‘yicha FAO ma‘lumotiga ko‘ra, dorivor o‘simliklar hisoblangan xo‘jag‘at va qorag‘atdan 2020 yilda 1,58 mln. tonnadan ortiq hosil olingan. Ushbu dorivor o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi birinchi o‘rinda turadi va mazkur davlatda 2020 yilda 618,90 ming tonna hosil olingan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarda Polshada 268,20 ming tonna, Meksikada 146,35 ming tonna, Serbiyada 118,67 ming tonna, AQSH da 100,69 ming tonna yetishtirilgan, hosilning qolgan qismi esa boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi”¹. Mazkur davlatlarda yetishtiriladigan xo‘jag‘at va qorag‘atda katta iqtisodiy zarar yetkazadigan kasalliklar hosilning sifatiga va miqdoriga salbiy ta‘siri oshib bormoqda. Zararning oldini olishda kasallikning tarqalishi va rivojlanishini aniqlash, iqtisodiy zarar miqdor mezoniga asoslangan holda kurash usullarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda dorivor o‘simliklarning *Sphaerotheca pannosa* (Wallr.) Lev. var. *rosae* Woron., *Phragmidium distiflorum* (Tode) James., *Leveillula saxifragacearum* Golov. f. *ribis* Golov., *Gloeosporium ribis* Mont. et Desm. zamburug‘lari qo‘zg‘atadigan kasalliklari tufayli na‘matak, xo‘jag‘at va qorag‘at o‘simliklarining hosiliga sezilarli darajada xavf tug‘dirmoqda. Bu zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kasalliklar ta‘sirida faqat hosil miqdori emas, balki ularning tovarlik sifati ham pasayib ketishi sababli, mazkur kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘larga qarshi kurash agrotexnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda mahalliy floraga mansub dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik holatni yaxshilash, plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. “Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmasevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda”². Ular orasida na‘matak, qorag‘at va xo‘jag‘at dorivor o‘simliklari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu o‘simliklarda uchraydigan kasalliklar ularni nafaqat hosilini, balki sifatini ham pasaytirishi kuzatilgan. Dorivor o‘simliklarni yetishtirishni tashkil etishdagi mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish bo‘yicha jumladan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

¹ FAOSTAT, 2020; www.fao.org

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670 sonli “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori

strategiyasining qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga bag'ishlangan 3.3-bandida «...o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish choralarini ishlab chiqish va joriy etish» masalalari alohida belgilab qo'yilgan"³. Bu qarorlarni amalga oshirish uchun Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dorivor o'simliklar na'matak, xo'jag'at va qorag'atning kasalliklari bir qator xorij olimlari tomonidan batafsil o'rganilib, AQSH da F.T.Brooks, Rossiyada O.B. Natalina, A.A.Ablakatova, N.A.Ryabkova, Armanistonda D.N.Teterevnikova-Babayan, Latviyada I.Ya.Jerbele, Turkmanistonda I.F.Frolov, Belorussiyada A.K.Grishanovich, Ukrainada Ye.V.Isaeva, Polshada M.Lucka, Gollandiyada R.E.Labrugire, Angliyada L.G.Montgomeri, Vengriyada S.Kaszonyi, Qozog'istonda L.D.Kazenas, M.T.Kulikovalar, O'zbekiston Respublikasi sharoitida na'matak, xo'jag'at va qorag'atda uchraydigan zamburug'lar to'g'risidagi ma'lumotlar asosan floristik ko'rinishida bo'lib, ularni F.A.Axmedova, N.I.Gaponenko, B.D.Kleyner va S.S.Ramazanovalar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Lekin, O'zbekistonda na'matak, xo'jag'at va qorag'atlarning kasalliklarini va ularni qo'zg'atuvchi zamburug'larni o'rganishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiotexnologiya kafedrasining №3-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan №2.7 "Dorivor o'simliklar introduksiyasi va o'simliklarni himoya qilishda biotexnologik usullarni ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan (2016-2020 yy).

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Tadqiqotning maqsadi dorivor o'simliklar – na'matak, xo'jag'at va qorag'at navlari hamda turlarida zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarini tur tarkibi, tarqalishi, rivojlanishi hamda keltiradigan zararini, ularga qarshi kurash choralarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

na'matak, xo'jag'at va qorag'atning zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarini aniqlash, ularning qo'zg'atuvchilarini sof kulturasini ajratish hamda turini identifikatsiya qilish;

plantatsiyalarda uchraydigan kasalliklarni dominant turlarini, ularning tarqalishi, rivojlanishi va zararini aniqlash;

mazkur dorivor o'simliklarida kasallik qo'zg'atadigan zamburug'larning patogenligini aniqlash;

dorivor o'simliklarning zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarga chidamli bo'lgan navlari aniqlash;

dorivor o'simliklarning kasalliklariga qarshi kichik dala tajribalari va keng maydonlarda qo'llash uchun ruxsat etilgan fungitsidlarning turli me'yorlarining samaradorligini aniqlash;

dorivor o'simliklarning plantatsiyalarida kasalliklarga qarshi fungitsidlarning maqbul me'yorlarini va qo'llash muddatlarini aniqlash;

fungitsidlarning biologik va tavsiya etilayotgan kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini hisoblab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida na'matak (*Rosa L.*), xo'jag'at (*Rubus L.*) va qorag'at (*Ribes L.*) dorivor o'simliklari va ularning navlari hamda ularda zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti dorivor o'simliklarda kasallik qo'zg'atadigan zamburug' turlari, ularning kultural-morfologik belgilari, keltiradigan zarari va kasalliklarga qarshi qo'llaniladigan fungitsidlar.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda fitopatologiya va mikologiyada keltirilgan usullar qo'llanilgan, dorivor o'simliklarda kasalliklarni tarqalishi va rivojlanishi K.V.Popkova (1976) keltirgan usullar asosida hisoblab chiqildi hamda kasalliklarni keltirgan zarari A.Ye.Chumakov va T.I.Zaxarova (1990) usullari bo'yicha aniqlandi, qo'zg'atuvchi zamburug'larning turini aniqlashda M.A.Litvinov (1969), V.I.Bilay (1977), N.M.Pidoplichko (1977, 1978), E.G. Simmons (2007) va H.L. Barnett (1998) aniqlagichlaridan foydalanildi hamda zamburug'larning patogenlik xususiyatlari P.N.Golovin (1949) va V.I. Bilay (1973) usullari yordamida o'rganilib, fungitsidlarning biologik va iqtisodiy samaradorliklari M.I.Dementeva (1985) keltirgan usullar asosida aniqlandi va tajriba natijasida olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov (1985) bo'yicha matematik-statistik tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyati sharoitida na'matak, xo'jag'at va qorag'atning zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklari optimal namlik va haroratni hamda infeksiyon fonning mavjudligi tufayli kasallikning tarqalishi hamda rivojlanishi aniqlangan;

na'matak, xo'jag'at va qorag'at dorivor o'simliklarida uchraydigan unshudring, zang, antraknoz, fuzarioz, septarioz va dog'lanish kasalliklarini ta'siri natijasida hosildorlikni kamayishi aniqlangan;

Toshkent viloyati sharoitida ilk bor na'matakning unshudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'ining kleystotesiy meva tanasini hosil qilishi aniqlangan;

Alternaria alternata (Fr.) Keissler zamburug' turi Toshkent viloyati sharoitida na'matakning qora dog'lanish kasalligini qo'zg'atishi birinchi marta aniqlangan;

na'matak, xo'jag'at va qorag'atda kasallik qo'zg'atadigan *S.pannosa*, *S.macularis*, *L.saxifragacearum*, *Fusarium sp.* zamburug' turlarining patogenlik xususiyatlari aniqlangan;

zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarga nisbatan qorag'atning "Siyuma", "Ruxshona", "Uzbekskaya sladkaya", "Iroda" navlari, xo'jag'atning "Progress" navi va na'matakning "Dargumon" turi kompleks chidamlilikni namoyon qilishi aniqlangan;

na'matak, xo'jag'at va qorag'atning unshudring, zang, antraknoz hamda fuzarioz kasalliklariga qarshi fungitsidlarning eng maqbul me'yorlari hamda qo'llash muddatlari aniqlangan;

na'matak, xo'jag'at va qorag'at dorivor o'simliklarining zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklariga qarshi plantatsiyalarda qo'llanilgan fungitsidlarning biologik va iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

na'matak, xo'jag'at va qorag'atning zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarini tarqalishi, rivojlanishi hamda zarari aniqlangan;

zamburug' qo'zg'atadigan kasalliklarga chidamli bo'lgan dorivor o'simliklarning navlaridan plantatsiyalarni barpo etish tavsiya etilgan;

na'matak, qorag'at va xo'jag'atning unshudring kasalligiga qarshi Sideli TOP fungitsidining 0,7 l/ga, na'matakning zang kasalligiga qarshi Skalpel fungitsidining 0,6 l/ga me'yorini purkash, fuzarioz kasalligiga qarshi Maksim XL fungitsidining 1,5 g/kg me'yorini bilan urug'larni ekishdan oldin dorilash, qorag'atning antraknoz kasalligiga qarshi Ridomil Gold MS fungitsidining 2,5 kg/ga me'yorini, xo'jag'atning septariozi kasalligiga qarshi Reks DUO fungitsidining 0,6 l/ga me'yorini qo'llash tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi laboratoriya va dala tajribalari usullaridan foydalangan holda olingan ma'lumotlar bir-biriga mos kelishi; tadqiqotlarning tahlil qilinganligi, o'tkazilgan tajribalarda respublikamiz va xorij mamlakatlarida keng ishlatiladigan, aprobatsiyadan o'tgan usullar qo'llanilishi; keltirilgan ma'lumotlar statistik tahlil qilinganligi, tadqiqotlarda olingan natijalar ishlab chiqarish sinovidan o'tkazilganligi; tajribalar har yili universitet olimlari tomonidan aprobatsiyadan o'tganligi; tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarida muhokama qilinganligi, shuningdek maqola ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, na'matakda *S.pannosa*, *Ph.distiflorum*, *Fusarium sp.*, xo'jag'atda *S.macularis*, *S.rubi* va qorag'atda *L.saxifragacearum*, *G.ribis*,

T.vulgaris, *S.ribis* zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan kasalliklari aniqlanganligi va ularning tarqalishi, rivojlanishi hamda zararini o‘rganilganligi, na‘matakning unshudring kasalligini qo‘zg‘atuvchi zamburug‘ning kleystotesiy meva tanasini hosil qilishini hamda dog‘lanish kasalligini *A.alternata* zamburug‘i qo‘zg‘atishi ilk bor aniqlanganligi, zamburug‘larning patogenligini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kasalliklarga kompleks chidamli bo‘lgan na‘matakning Dargumon turi, qorag‘atni Iroda, Ruxshona, Siyuma, Uzbekskaya sladkaya navlari va xo‘jag‘atni Progress navlarini plantatsiyalar tashkil etish uchun tavsiya etilganligi, kasalliklarga qarshi fungitsidlar qo‘llashni maqbul muddat va me‘yorlarini belgilab berilganligi hamda ularni yaxshi natijalar namoyon qilgan me‘yorlarini biologik va iqtisodiy samaradorligini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dorivor o‘simliklardan na‘matak, qorag‘at va xo‘jag‘atning zamburug‘ qo‘zg‘atadigan kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

na‘matak, qorag‘at va xo‘jag‘atlarning unshudring kasalligiga qarshi Sideli TOP 140 d.k. fungitsidini 0,7 l/ga me‘yorida qo‘llash texnologiyasi “Burchimulla davlat o‘rmon xo‘jaligi” Chotqol bo‘limida va ToshDAU huzuridagi Axborot-maslahat markazi DUK da, akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda “BB Agro 1” f/x da va “Kumushkon Baxt” f/x da jami 7,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 02/025-3581-son ma‘lumotnomasi). Natijada mos ravishda 88,4%, 87,1%, 88,8% biologik samaradorlikka erishilgan va muvofiq holda 15,0, 17,5 va 8,0 s/ga qo‘shimcha hosil olingan, iqtisodiy samaradorlik mos xolda 11100,0 ming so‘m, 20000,0 ming so‘m va 11000,0 ming so‘mni tashkil etgan;

na‘matakning zang kasalligiga qarshi Skalpel 250 sus.k. fungitsidini 0,6 l/ga me‘yorida qo‘llash O‘zR FA Botanika institutining huzuridagi akademik F.N.Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog‘ida jami 1,0 gektar maydonga joriy etilgan. (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 02/025-3581-son ma‘lumotnomasi). Natijada 88,2% biologik samaradorlikka erishilgan va 15 s/ga hosil saqlab qolingan, iqtisodiy samaradorlik 11350,0 ming so‘mni tashkil etgan;

na‘matakning fuzarioz kasalligiga qarshi Maksim XL 035 FS, 3,5% sus.k. fungitsidini 1,5 ml/kg sarf me‘yorida qo‘llash ToshDAU huzuridagi Axborot-maslahat markazi (Extension center) DUK da jami 0,5 ga maydonda joriy etilgan. (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 02/025-3581-son ma‘lumotnomasi). Natijada 91,7% biologik samaradorlikka erishilgan va 20% ko‘chatlar saqlab qolingan;

qorag‘atning antraknoz kasalligiga qarshi Ridomil GOLD MS 68% s.d.g fungitsidini 2,5 kg/ga me‘yorida qo‘llash “Kumushkon Botirali” f/x da jami 1,0 ga maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 02/025-3581-son ma‘lumotnomasi). Natijada 18,7% hosil saqlab qolingan va 89,2% biologik samaradorlikka erishilgan;

xo‘jag‘atning oq dog‘lanish yoki septorioz kasalligiga qarshi Reks DUO 49,5% sus.k. fungitsidini 0,6 kg/ga me‘yorini qo‘llash “Kumushkon Gold” f/x ga

qarashli 1,0 ga maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 02/025-3581-son ma'lumotnomasi). Natijada 87,7% biologik samaradorlikka erishilgan va 17,4% hosil saqlab qolingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tqazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 13 ta ilmiy ishi chop etilgan, jumladan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliyot natijalari, amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Na'matak, xo'jag'at, qorag'atning ahamiyati, biologik xususiyatlari, kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari** (Adabiyotlar sharhi)" deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari, dunyodagi yetakchi olimlar ilmiy ishlarining natijalari, na'matak, xo'jag'at, qorag'at kasalliklarining o'rganilganligi, kasalliklarning tarqalishi, zarari, qo'zg'atuvchilari va ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hamda bu kasalliklarga qarshi kurash choralari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkazish joyi, ob'ektlari va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joy, uning materiallari va usullari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dorivor o'simliklar – na'matak, qorag'at va xo'jag'atlarning kasalliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar 2017-2020 yillarda Toshkent viloyatining Qibray, Parkent, Bo'stonliq, Yuqorichirchiq hamda Toshkent tumanlaridagi xo'jaliklarda vegetatsion va kichik dala tajribalari o'tkazildi hamda laboratoriya tajribalari ToshDAUning "Agrobiotexnologiya" kafedrasida olib borildi. Na'matak, qorag'at va xo'jag'at o'simliklari kasalliklarining tarqalishi va rivojlanishining o'rtacha darajalari VIZR qo'llanmasida (Chumakov va boshq., 1974) keltirilgan formulalar yordamida hisoblab chiqildi. Bu dorivor o'simliklarning kasalliklarga chidamliligini baholash hamda ularning kasalliklarini zararini aniqlash A.Ye.Chumakov va T.I.Zaxarova (1990) keltirilgan usullar asosida topilgan.

Na'matak, qorag'at va xo'jag'atning zararlangan a'zolarining namunalari olish, zamburug'larning sof kulturalarini ajratish va ularning mikroskopik

belgilarini hamda patogenlik xususiyatlarini o'rganishda mikologiyada va fitopatologiyada (Golovin, 1949; Bilay, 1973) umumqabul qilingan usullar qo'llanildi.

Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larning turlari, ularning mikroskopiya jarayonlarida kuzatilgan belgilarini aniqlagichlardagi (Pidoplichko, 1977 a, b, 1978; Litvinov, 1969; Bilay, 1977; Simmons, 2007; Barnett, 1998 va Hasanov va b., 2010) diagnostik parametrlar bilan solishtirish orqali identifikatsiya qilingan.

Kasalliklarga qarshi qo'llanilgan biopreparat va fungitsidlarning biologik samaradorligi VIZR (Dementev, 1985) va O'zR Davlat Kimyo komissiyasining (Xo'jayev Sh.T va b., 2004) uslubiy ko'rsatmalariga binoan hisoblab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Toshkent viloyati sharoitida na'matak, qorag'at va xo'jag'atlarning zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklari, ularni tarqalishi, rivojlanishi hamda zarari**» deb nomlangan uchinchi bobida bu dorivor o'simliklarda zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklarining tarqalishi, rivojlanishi va zararini aniqlash bo'yicha kuzatuvlarning natijalari keltirilgan (1-jadval).

Na'matak o'simligida zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklarni o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari Toshkent viloyatining "Ulug'bek bog'lari" f/x da, BDO'X Chotqol bo'limida, ToshDAU huzuridagi AMM DUK va Toshkent botanika bog'ining na'matak ekilgan dalalarida o'tkazilgan hamda bu o'simlikda keng tarqalgan zamburug'lar qo'zg'atadigan un-shudring, zang, fuzarioz va dog'lanish kasalliklari qayd etilgan.

1-jadval.

Na'matak, xo'jag'at va qorag'at o'simliklarida qayd etilgan kasalliklar va kasallik qo'zg'atuvchilari.

| No | Aniqlangan kasallik qo'zg'atuvchi zamburug' turi | Qo'zg'atadigan kasallik nomi | Ekin turi |
|----|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------|-----------|
| 1 | <i>Sphaerotheca pannosa</i> (Wallr.) Lev. var. <i>rosae</i> Woronich. | Un-shudring | Na'matak |
| 2 | <i>Phragmidium distiflorum</i> (Tode) James. | Zang | Na'matak |
| 3 | <i>Marssonina rosae</i> (Lib.) Died. | Dog'lanish | Na'matak |
| 4 | <i>Alternaria alternata</i> (Fr.) Keissler. | Dog'lanish | Na'matak |
| 5 | <i>Fusarium</i> sp. | Fuzarioz | Na'matak |
| 6 | <i>Leveillula saxifragacearum</i> Golov. f. <i>ribis</i> Golov. | Un-shudring | Qorag'at |
| 7 | <i>Sphaerotheca mors uvae</i> (Schw.) Berk. et Curt. | Un-shudring | Qorag'at |
| 8 | <i>Gloeosporium ribis</i> (Lib.) Mont.et Desm. | Antraknoz | Qorag'at |
| 9 | <i>Septoria ribis</i> Desm. | Septorioz | Qorag'at |
| 10 | <i>Tubercularia vulgaris</i> Tode. | Navdalarni qurib qolishi | Qorag'at |
| 11 | <i>Septoria rubi</i> West. | Septorioz | Xo'jag'at |
| 12 | <i>Sphaerotheca macularis</i> Magnus. | Un-shudring | Xo'jag'at |

Un-shudring kasalligini yillar bo'yicha na'matakda uchrashi tahlil qilinganda 2017 yilda kasallikning tarqalishi 70,8-79,3% gacha, rivojlanishi esa 22,7-29,8% bo'lishi aniqlandi. Bu ko'rsatkich 2018 yilda mos ravishda 10,2-71,0% va 3,6-13,1% ga teng bo'ldi, 2019 yilda esa 12,6-81,9% va 5,1-32,6% ni tashkil etdi. 2019 yilda boshqa yillarga nisbatan bahorda yog'ingarchilik ko'proq bo'lishi kasallikni ko'payishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Na'matak o'simligida un-shudring kasalligini tarqalishi va uni zarari BDO'X Chotqol bo'limida nisbatan ko'proq (77,4%) bo'lib, kasalligining rivojlanishi barglarda 31,8%, novdasida 13,3%, gulida 3,7% bo'lishi qayd etildi va hosilni yo'qotilishi 22,7% ga teng bo'ldi. Toshkent Botanika bog'ida bu ko'rsatkich mos ravishda 23,0%, 10,6% va 2,5% ni tashkil etdi hamda bu yerda kasallik tufayli 18,0% hosil yo'qotildi. Bunday ko'rsatkich "Ulug'bek bog'lari" f/x da muvofiq ravishda 19,2%, 11,5% va 3,1% ga teng bo'ldi hamda 14,5% hosil kasallik ta'sirida yo'qotilganligi qayd etildi.

Na'matak urug'idan chiqqan nihollarda kasallikning tarqalishi 16,3-37,8% va rivojlanishi 8,0-13,8% bo'lganida, ko'chatlarning o'sishi va rivojlanishi sog'lomlarga nisbatan 1,6-8,2% ga orqada qolishi hamda bir tupdagi barglar sonini 10,3-17,2% kamroq bo'lishi kuzatilgan.

Na'matakda zang kasalligini tarqalishining yuqori ko'rsatkichi BDO'X Chotqol bo'limida kuzatildi. Bunda kasallikning tarqalishi 46,8-54,9%, rivojlanishi esa 20,9-26,3% bo'lganligi qayd etilgan.

Kasallikni boshqa xo'jaliklarga nisbatan kamroq bo'lishi "Ulug'bek bog'lari" f/x da aniqlangan, unda kasallikning tarqalishi 31,8-38,4%, rivojlanishi 14,5-17,2% bo'lgan. Bu ko'rsatkich ToshDAU huzuridagi AMM DUK ning tajriba xo'jaligida mos holda 34,3-42,0% va 15,2-19,0% bo'lsa, Toshkent botanika bog'ida 34,2-45,5% va 15,8-20,1% ni tashkil etgan.

BDO'X Chotqol bo'limida zang kasalligini ko'proq kuzatilganligi, bu xo'jalik joylashgan tog'li zonada tekislikka nisbatan harorat va namlikni zang kasalligini rivojlanishi uchun qulay bo'lganligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu yerda zang kasalligini tarqalishi 50,7%, rivojlanishi barglarda 20,1%, novdalarda 16,2 va gulbandlarda 7,8% bo'lganida na'matakning hosilini yo'qotilishi 18,2% bo'lgan. Bunday ko'rsatkich Toshkent botanika bog'ida mos holda 39,5%, 17,8%, 15,1% va 7,2% bo'lganida 12,5% hosil yo'qotilgan. "Ulug'bek bog'lari" f/x da mazkur ko'rsatkich muvofiq ravishda 35,0%, 15,7%, 14,5% va 6,3% bo'lganligi qayd etilgan hamda yo'qotilgan hosil 10,0% ga teng bo'lgan.

Na'matakning fuzarioz kasalligini tarqalishi va rivojlanishi 2019 yili boshqa yillarga nisbatan ko'proq, ya'ni uning tarqalishi 17,6-40,1%, rivojlanishi 5,5-19,2% bo'lganligi aniqlangan. Buning asosiy sababi, yuqorida aytilganidek, boshqa yillarga nisbatan 2019 yilda yog'ingarchilikni ikki barobar ko'proq bo'lganligida deb hisoblash mumkin.

Fuzarioz kasalligini ko'rsatkichi ham BDO'X Chotqol bo'limida yuqori bo'lgan va hosil ham nisbatan ko'proq yo'qotilgan.

Alternarioz yoki qora dog‘lanish kasalligi BDO‘X Chotqol bo‘limida ko‘proq uchrashi aniqlangan. Bunda uning tarqalishi 43,0% va rivojlanishi 25,0% bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich Toshkent botanika bog‘ida mos holda 37,0% va 21,6%, “Ulug‘bek bog‘lari” f/x da 22,0% va 14,7% bo‘lishi kuzatilgan.

Na‘matakning qora dog‘lanish kasalligini ham boshqa kasalliklar singari BDO‘X Chotqol bo‘limida ko‘p bo‘lishi aniqlangan.

Qorag‘atning un-shudring kasalligini Toshkent viloyati xo‘jaliklarida 2017-2019 yillar davomida o‘rganilganda, kasallikning tarqalishi va rivojlanishi 2018 yili nisbatan yuqori bo‘lib, uning bu ko‘rsatkichi mos holda 33,1-49,8% va 18,4-27,1% ga teng bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkich 2017 yilda muvofiq ravishda 26,4-42,3% va 15,2-24,1%, 2019 yilda esa 25,6-41,2% va 14,2-23,1% ni tashkil etgan. Qorag‘atning kasallik tufayli yo‘qotilgan hosili 12,0-20,0% ga teng bo‘lgan. Bunda M.Mirzayev nomidagi BUVITI da 20,0%, “BB Agro 1” f/x da 18,0%, “Kumushkon Gold” f/x da 15,7% va “Kumushkon Botirali” f/x da 12,0% hosil yo‘qotilganligi qayd etilgan.

Qorag‘atning un-shudring kasalligini M.Mirzayev nomidagi BUVITI da boshqa xo‘jaliklarga qaraganda ko‘proq tarqalishi va hosilni nisbatan ko‘proq yo‘qotilishi bu yerda ekilgan qorag‘at naviga o‘tkazilgan agrotexnik choralarga va kasallikka qarshi amalga oshirilgan tadbirlarni sifatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qorag‘atda antraknoz kasalligining tarqalishi va rivojlanishi boshqa yillarga qaraganda 2019 yilda ko‘proq bo‘lganligi qayd etilgan, ya‘ni bu ko‘rsatkich mos holda 20,8-36,4% va 11,6-20,2% ga teng bo‘lgan. 2017 hamda 2018 yillarda antraknozning tarqalishi 20,5-34,9% va 20,0-33,5% bo‘lgan bo‘lsa, uning rivojlanishi esa 11,4-19,4% va 11,1-18,6% ni tashkil etgan. 2019 yilda qorag‘atni kasallik bilan kuchliroq zararlanishiga boshqa yillarga nisbatan yog‘ingarchilikni ko‘proq bo‘lganligi sababchi bo‘lishi mumkin.

Antraknoz kasalligi tufayli eng ko‘p hosil M.Mirzayev nomidagi BUVITI da (25,0%) va eng kam hosil “BB Agro 1” f/x da yo‘qotilganligi (10,7%) aniqlangan. Qorag‘at hosilini yo‘qotilishi “Kumushkon Gold” f/x da 18,8% va “Kumushkon Botirali” f/x da 16,7% ni tashkil etgan.

Qorag‘atning oq dog‘lanish yoki septorioz kasalligini nisbatan tarqalishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichi va hosilni ko‘proq yo‘qotilishi “BB Agro 1” f/x dalalarida qayd etilgan. Bu yerda kasallikni tarqalishi 44,0% va rivojlanishi 24,4%, hosilni yo‘qotilishi esa 20,8% bo‘lganligi aniqlangan. M.Mirzayev nomidagi BUVITI da kasallikni tarqalishi 32,0%, rivojlanishi 16,9% hamda yo‘qotilgan hosil 15,4% bo‘lganligi kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich mos ravishda “Kumushkon Gold” f/x da 22,0%, 12,5% va 15,6%, “Kumushkon Botirali” f/x da 18,0%, 10,7% va 13,3% bo‘lganligi qayd etilgan.

Septorioz kasalligini ko‘p uchrashi va hosilni ko‘p yo‘qotilishi “BB Agro 1” f/x da kuzatilgan mazkur holat bu yerda o‘tkazilgan agrotexnik ishlovga, kasallikka qarshi olib borilgan kurash choralariga hamda ekilgan qorag‘at naviga bog‘liq bo‘lishi kerak.

Qorag‘at novdalarining qurib qolish kasalligini eng ko‘p uchrashi M.Mirzayev nomidagi BUVITI ning qorag‘at ekilgan dalasida qayd etilgan bo‘lib, unda kasallikning tarqalishi 30,2-33,2%, rivojlanishi 15,9-17,5% ni tashkil etgan.

Qolgan xo'jaliklarda bu ko'rsatkich, mos holda "BB Agro 1" f/x da 23,9-28,1% va 12,6-14,8%, "Kumushkon Gold" f/x da 21,7-23,8% va 11,4-12,6%, "Kumushkon Botirali" f/x da 20,5-22,2% va 10,8-11,7% ga teng bo'lgan. Kasallik ta'sirida hosilni nisbatan ko'p yo'qotilish ham M.Mirzayev nomidagi BUVITI da ko'p bo'lib, 21,2% hosil yo'qotilgan. Bu ko'rsatkich "BB Agro 1" f/x da 18,5%, "Kumushkon Gold" f/x da 16,7% va "Kumushkon Botirali" f/x da 12,9% bo'lganligi qayd etilgan.

Kasallikni uchrashi M.Mirzayev nomidagi BUVITI da ko'p bo'lishi va hosilni nisbatan ko'p yo'qotilishi bu xo'jalikda dehqonchilik madaniyatini yetarli darajada emasligiga bog'liq bo'lsa kerak.

Xo'jag'atning oq dog'lanish yoki septorioz kasalligini tarqalishi va rivojlanishida xo'jaliklar bo'yicha keskin farq sezilmagan. "BB Agro 1" f/x dagi kasallikni tarqalishi 26,7%, rivojlanishi 22,5%, "Kumushkon Gold" f/x da bu ko'rsatkich mos holda 33,3% va 27,5%, "Kumushkon Baxt" f/x da esa 36,2% va 28,4% bo'lganligi qayd etilgan. Bu kasallik ta'sirida 8,3-14,3% gacha hosilni yo'qotilishi aniqlangan. Mazkur ko'rsatkich "BB Agro 1" f/x da 8,3%, "Kumushkon Gold" f/x da 13,6% va "Kumushkon Baxt" f/x da 14,3% bo'lganligi kuzatilgan.

"Kumushkon Baxt" f/x da kasallikning ko'p bo'lishiga kasallikka qarshi amalga oshirilgan choralar, agrotexnik tadbirlar va ekish uchun tanlangan navlar sabab bo'lishi mumkin.

Xo'jag'at o'simligining un-shudring kasalligi nisbatan "BB Agro 1" f/x da kamroq tarqalganligi qayd etilgan. Bu xo'jalikda un-shudring kasalligini tarqalishi 12,5% va rivojlanishi 5,3% bo'lganligi kuzatilgan. Mazkur ko'rsatkich muvofiq ravishda "Kumushkon Baxt" f/x da 28,2% va 22,7% hamda "Kumushkon Gold" f/x da 31,4% va 25,2% bo'lgan.

Bu kasallik tufayli "BB Agro 1" f/x da nisbatan kamroq hosil yo'qotilganligi kuzatilgan va bu ko'rsatkich 10,9% ni tashkil etgan. Kasallik ta'sirida hosilni yo'qotilishi "Kumushkon Baxt" f/x da 20,0% hamda "Kumushkon Gold" f/x da esa 22,7% ga teng bo'lgan. Bunday farq mazkur xo'jaliklarda ekilgan xo'jag'at naviga, olib borilgan agrotexnik tadbirlarga va kasallikka qarshi amalga oshirilgan kurash choralariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning «**Na'matak, qorag'at va xo'jag'atlarda kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larning patogenlik xususiyatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida mazkur dorivor o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larning patogenligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'lar bilan sun'iy zararlantirish tajribalari gultuvaklarga ekilgan urug'lardan unib chiqqan nihollarda o'tkazilgan. Tajribalar 3 ta variantda o'tkazilgan va buning uchun *Sphaerotheca pannosa* (Wallr.) Lev. var. *rosae* Woronich. qo'zg'atgan un-shudring bilan zararlangan na'matak (I-variant) va atirgul (II-variant) a'zolarida hosil bo'lgan zamburug' konidiyalaridan foydalanilgan.

Kasallikni nihollarda tarqalishi I-variantda 33,3% va II-variantda esa 33,3-66,7% bo'lganligi kuzatilgan. Kasallikni barglarda tarqalishi esa I-variantda 6,9-7,7% va II-variantda 6,8-20,5% ni tashkil etgan. 15-sutkaga borib barcha nihollarda kasallik belgilari kuzatildi va uning tarqalishi 100% bo'lgan. Kasallikning barglarda tarqalishi I-variantda 41,3-45,8%, II-variantda 44,8-47,2% ga teng bo'lgan. 30-sutkaga borib, bu ko'rsatkich mos ravishda 96,1-97,2% va 97,7-98,7% bo'lganligi aniqlangan. Nazoratda, ya'ni na'matak nihollari zamburug'lar bilan zararlantirilmagan variantda kasallik kuzatilmagan.

Tajribalarda shunday xulosa qilingan: na'matakda bir turga va shaklga mansub bo'lgan un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'lar qaysi tur hamda shakldan ajratilganligiga qarab o'ziga xos belgilarini namoyon qilishi kuzatilgan va inkubatsion davri bo'yicha ham farq qilishi aniqlangan.

Qorag'atga nisbatan un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'ning patogenligini o'rganish bo'yicha tajribalar ikkita variantda o'tkazilgan. I-variantda *Leveillula saxifragacearum* Golov. f. ribis Golov. zamburug'ining, II-variantda *Sphaerotheca mors-uvae* (Schw.) Berk. et Curt. amerika un-shudring kasalligini qo'zg'atadigan zamburug'ning konidiyalaridan foydalanilgan. Nazorat sifatida kasallik bilan zararlantirilmagan qorag'at ko'chatlaridan foydalanilgan.

Qorag'at ko'chatlarida kasallikning ilk belgilari zararlantirilgandan so'ng 6-sutka o'tgach namoyon bo'lgan. 9-sutkada tajriba variantlaridagi barcha ko'chatlar kasallik bilan 100% zararlanganligi qayd etilgan.

Un-shudring kasalligini rivojlanishi 6-sutkada I-variantda 1,8-2,0% va II-variantda 1,4% bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 9-sutkaga borib mos xolda 2,3-2,8% va 1,9-2,2% bo'lganligi kuzatilgan. *Sphaerotheca mors-uvae* zamburug'i bilan sun'iy zararlantirgandan so'ng 45 kun o'tgach bu variantdagi barcha ko'chatlardagi barglar qurigan va to'kilmasdan o'simlikning o'zida osilib qolgan. I-variantdagi ko'chatlarning qurib qolish holati zararlantirilgandan so'ng 52-kuni kuzatilgan va ko'chatlarning barchasi kulrang tus olgan. Kasallikni rivojlanishi uchun zarur sharoit bo'lganida 50 kun ichida yosh ko'chatlar butunlay nobud bo'lishi aniqlangan.

Xo'jag'atning un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'ning patogenligini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tajribalarda qorag'atga qo'llanilgan usullardan foydalanilgan. Tajribada xo'jag'atda un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi *Sphaerotheca macularis* Magnus f. rubi Rehm. zamburug'ining konidiyalari ishlatilgan. Xo'jag'atni un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchisi bilan sun'iy zararlantirishda gultuvaklarda yetishtirilgan qalamchadan chiqqan ko'chatlardan foydalanilgan.

Xo'jag'atni sun'iy zararlantirilgan ko'chatlarda kasallik belgilari ular zararlantirilgan kundan boshlab 6 kun o'tgach yuzaga kelganligi aniqlangan. 9 kundan so'ng esa kasallikning tarqalishi 100% bo'lgan. Kasallik jadal rivojlanib, 30-kuni uning ko'rsatkichi 27,2-29,9%, bu ko'rsatkich 45-kuni 59,7-61,1% bo'lganligi qayd etilgan va inkubatsion davri 6 kun bo'lgan. Kasallik qo'zg'atuvchisini rivojlanishi uchun optimal sharoitda (45 kun ichida) xo'jag'atning o'sishi to'xtab qolgan.

Na'matakda fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'larning patogenligini o'rganish bo'yicha tajribalarda *Fusarium* turkumiga mansub zamburug' shtammlarini sof kulturalari bug'doy donida ko'paytirilib tuproqqa solib chiqilgan.

